

**DARS JARAYONIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH***Muhammadiyaheva Go'zal Akbar qizi**BMTI 404-22 YeST talabasi*

Bizga ma'lumki, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun dasturi amalida ta'limdagi katta o'zgarishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qabul qilinishi bilan uzluksiz ta'lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir inson o'z kasbiy tayyorgarligini, maxoratini kuchaytirish imkoniyati yaratiladi. O'qituvchining yangi mavzuga tayyorgarlik ko'rishida metodlar va metodik usullarni tanlash – bu ularning o'zaro almashinuvini vaqt va didaktik maqsad bo'yicha muvozanatlashtirish demakdir .

Interfaol metodlarni tanlash mezoni – ularning ta'lim va tarbiyani rivojlantirish masalarni yechishga yuqori yo'nalganligidir . Interfaol metodlarning tanlashda ularning talabalar o'quv imkoniyatlariga to'liq mos kelishi, ya'ni samarali o'quv faoliyati uchun ichki va tashqi shart- sharoitlarining birligini ta'minlashdir . Bunda o'quvchilarning bilim darajasi, sharoit va imkoniyatini hisobga olgan holda interfaol usul tanlanishi lozim. O'quvchilarning xususiy imkoniyatlari va boshqa mavjud qurollanganlik darajasi inobatga olinmasa, o'qituvchi ko'zlagan maqsadga erish olmaydi, qiyinchilik va muammoga uchrashi mumkin. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar (innovation pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundankunga kuchayib bormoqda. Bu esa o'qituvchidan katta mas'uliyatni talab qiladi. O'qituvchi zamonaviy texnologiya va bilimlarni puxta o'zlashtirgan bo'lsa, o'zining ijodkorlik qobiliyati bilan ham turli interfaol usullarni tayyorlab, darsda tadbiq eta oladi. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik,

yo`naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Zamonaviy ta`limni tashkil etishga qo`yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o`quvchilarga yetkazib berish, bularda ma`lum faoliyat yuzasidan ko`nikma va malakalarni hosil qilish, bshuningdek, o`quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko`nikma, malaka darajasini baholash o`qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda, ta`lim jarayoniga nisbatan yangicha yondoshuvni talab etadi. Bu esa pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishda, o`qituvchi va o`quvchilar o`rtasida o`zaro hamkorlikni qaror toptirishda, o`quvchilar tomonidan o`quv predmetlari bo`yicha puxta bilimlarning egallanishini ta`minlashida, o`quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko`nikmalarini shakllantirishida, o`quvchilarning o`z imkoniyatlarini ro`yobga chiqarishda katta yordam beradi.

Masalan, A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan “Fikriy hujum” metodi yoki J.Donald Filips tavsiya etilgan “Yalpi fikriy hujum” metodi o`quvchilarning mashg`ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta`minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag`batlantirish hamda bir xil fikrlash inersiyasidan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g`oyalarni to`plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabli bosqichida paydo bo`lgan fikrlarni yengishga o`rgatish uchun xizmat qiladi. Zamonaviy ta`lim samaradorligi texnik vositalar va interfaol usullar bilan qurollangan o`qituvchiga bog`liq. Ta`lim sifatini yaxshilashda sharoit va o`qituvchining tayyorgarligiga bog`liq ekan, kelajakning ma`rifatli etib tarbiyalash biz-ustozlarning azaliy vazifamiz sanaladi.

#### **Adabiyotlar ro`yxati:**

1. Ramazanov B., Juraeva L., Sharipova N. Synthesis of modified amino-aldehyde oligo (poly) mers and study of their thermal stability //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2021. – Т. 839. – №. 4. – С. 042096.
2. Ниязов Л. Н., Жўраева Л. Р., Бердиева З. М. Кимё фанини ўқитишда кейс-стади усулидан фойдаланиш масалалари //Интернаука. – 2018. – №. 47-2. – С. 62-63.
3. Джураева Д. Д., Джураева Л. Р., Ниязов Л. Н. Мотивация как фактор развития потенциала учащихся в высших технических учебных заведениях //Актуальные проблемы социологии молодежи, культуры, образования и управления. Т. 3.—Екатеринбург, 2014. – 2014.
4. Мухаммадиев Б. Т., Джураева Л. Р. ПАРАМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СО<sub>2</sub> ЭКСТРАКЦИИ РАСТИТЕЛЬНЫХ ИНГРЕДИЕНТОВ //Главный редактор. – 2020. – С. 31.
5. Джураева Л. Р. ХИМИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ ПИЩЕВЫХ ПРОДУКТОВ //Главный редактор: Ахметов Сайранбек Махсутович, д-р техн.

наук; Заместитель главного редактора: Ахмеднабиев Расул Магомедович, канд. техн. наук; Члены редакционной коллегии. – 2021. – С. 13.

6. Жўраева Л. Р. РОЛЬ СЕТИ ИНТЕРНЕТА В ПРЕПОДАВАНИИ ХИМИИ //Universum: психология и образование. – 2021. – №. 6. – С. 4-6.

7. Джураева Л. Р. Изучение радикальной сополимеризации гетероциклических эфиров метакриловых кислот со стиролом //Интернаука. – 2017. – №. 6-1. – С. 71-73.

8. Мавланов Б. А., Джураева Л. Р. ИЗУЧЕНИЕ БИОЛОГИЧЕСКОЙ И БАКТЕРИЦИДНОЙ АКТИВНОСТИ СОПОЛИМЕРОВ НА ОСНОВЕ ГЕТЕРОЦИКЛИЧЕСКИХ ЭФИРОВ МЕТАКРИЛОВЫХ КИСЛОТ //Интернаука. – 2017. – Т. 7. – №. 11 Часть 2. – С. 8.

9. ФАЙЗИЕВ Ш. Ш., ДЖУРАЕВА Л. Р. О магнитных свойствах бората железа допированного магнием //Современные инновации в науке и технике. – 2014. – С. 264-266.

10. Джураева Л. Р. ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОСТРАНСТВЕННОЙ МАГНИТНОЙ НЕОДНОРОДНОСТИ ЛЕГКОПЛОСКОСТНЫХ СЛАБЫХ ФЕРРОМАГНЕТИКОВ //Ученый XXI века. – С. 21.

11. Жўраева Л. Р., Кодиров О. Ш. ЭКСТАКЦИЯ БЕНЗОЛА ИЗ ПИРОЛИЗНОГО ДИСТИЛЛЯТА ПРОИЗВОДСТВА СП ООО «UZ-KOR GAS CHEMICAL» НА СМЕШАННОМ ЭКСТРАГЕНТЕ ДМСО+ ДЭГ //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – Т. 11. – №. 1. – С. 95-107.

12. Juraeva L. R., Qurbonova S. S. Separation Of Mononuclear Arenes in The Deg+ Dmsol System //Czech Journal of Multidisciplinary Innovations. – 2022. – Т. 11. – С. 53-57.

13. Джураева Л. Р. Анализ Составы Пиролизного Дистиллята Методом Экстракционной Перегонки //Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities. – 2022. – Т. 12. – С. 150-154.

14. Джураева Л. Р., Кодиров О. Ш. ИССЛЕДОВАНИЕ ХИМИЧЕСКОГО СОСТАВА ПИРОЛИЗНОГО МАСЛА ВТОРИЧНОГО ПРОДУКТА ПРОИЗВОДСТВА СП ООО" UZ-KOR GAS CHEMICAL" //Universum: технические науки. – 2022. – №. 4-8 (97). – С. 44-48.